ASL NUSXA



# "AVTO CLIMATE CONTROL" MChJning JINOYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA(YUVISHGA) VA TERRORIZMNI MOLIYALASHTIRISHGA QARSHI KURASHISH SIYOSATI

| **Tasdiqlanishi** | | | |
|---|---|---|---|
| Lavozimi | Bo'lim | Imzo | F.I.Sh. |
| **Tasdiqlayman** | | | |
| Bosh direktor | Rahbariyat | | B.B.Mamatxonov |
| **Kelishildi** | | | |
| Bosh direktor o'rinbosari | Rahbariyat | | U.I.Kurbanov |
| **Aloqador bo'limlar bilan kelishilganligi** | | | |
| Yuriskonsult | "Avto Climate Control" MChJ | | U.A.Umaraliyev |
| Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi | Kasaba uyushmasi qo'mitasi | | A.T.Umirzaqov |
| Xizmat boshlig'i | Komplayens xizmati boshlig'i | | T.B.Gafurov |
| Standartlashtirish bo'yicha mas'ul | Sifat nazorati va menejmenti bo'limi | | S.M.Abduxalilova |
| **Ishlab chiqdi:** | | | |
| Bo'lim boshlig'i | Xodimlarni boshqarish bo'limi | | Z.T.Madyarova |

Amalga kiritilgan sana: 04.10.2023

Amal qilish muddati: 04.10.2028

Qayta ko'rib chiqish muddati: ________________

## O‘ZGARISHLARNI RO‘YXATGA OLISH VAROG‘I

| O‘zgarish № | O‘zgarishning qisqacha tavsifi, almashtirilgan varoqlar raqami | Tasdiqlandi | Amalga kiritildi | Imzo |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

## I. ЦЕЛЬ ПОЛИТИКИ И СФЕРА ЕЕ ПРИМЕНЕНИЯ

1.1. Цель Политики о противодействии легализации (отмыванию) доходов, полученных преступным путем, и финансированию терроризма («Политика») заключается в установлении требований ко всем продуктам (товарам, услугам и работам) и деятельности АО «Avto Climate Control» (далее – Компании) и (или) Подконтрольных предприятий, которые могут быть использованы в целях легализации (отмывания) доходов, полученных преступным путем, и финансирования терроризма.

1.2. Компания привержена принципу предотвращения использования её продуктов (товаров, работ и услуг) в целях легализации (отмывания) доходов, полученных преступным путем, и финансирования терроризма.

1.3. Персонал и Деловые партнеры должны соблюдать Применимое законодательство в сфере ПОД/ФТ в соответствии с настоящей Политикой и другими локальными актами Компании.

1.4. Политика распространяется на Компанию, Персонал, Подконтрольные предприятия и Деловых партнеров.

1.5. Политика применяется при инвестировании в Компанию или Подконтрольное предприятие, оказании финансовой помощи (кредитов, займов и т.д.) Компании, а также при предоставлении со стороны Компании финансовой помощи (кредитов, займов и т.д.), оказании благотворительности и коммерческого спонсорства, оплате контрактов в рамках комплексной проверки Деловых партнеров.

## I. SIYOSATNING MAQSADI VA UNING QO‘LLANILISH SOHASI

1.1. Jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish Siyosatining (“Siyosat”) maqsadi “Avto Climate Control” MChJ (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) va (yoki) Nazorat ostidagi korxonalarning jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish) va terrorizmni moliyalashtirish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan barcha mahsulotlariga (tovarlariga, xizmatlariga va ishlariga) va faoliyatiga talablarni belgilashdan iborat.

1.2. Jamiyat o‘z mahsulotlaridan (tovarlaridan, ishlaridan va xizmatlaridan) jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish) va terrorizmni moliyalashtirish maqsadida foydalanishning oldini olish tamoyiliga sodiqdir.

1.3. Xodimlar va Biznes hamkorlar JDL/TMga qarshi kurashish to‘g‘risidagi amaldagi qonunchilikka ushbu Siyosat va Jamiyatning boshqa mahalliy hujjatlariga muvofiq rioya etishlari shart.

1.4. Siyosat Jamiyat, Xodimlar, Nazorat ostidagi korxonalar va Biznes hamkorlarga nisbatan tatbiq etiladi

1.5. Siyosat Jamiyatga yoki Nazorat ostidagi korxonalarga investitsiya qilishda, moliyaviy yordam (kreditlar, qarzlar va boshqalar) taqdim etishda, shuningdek Jamiyat tomonidan moliyaviy yordam (kreditlar, qarzlar va boshqalar) taqdim etishda, xayriya va tijorat homilik ko‘rsatishda, Biznes hamkorlarning kompleks tekshiruvi doirasida shartnomalar uchun to‘lovlarni amalga oshirishda qo‘llaniladi.

1.6. Предполагается, что сотрудники, должностные лица и директора предприятий, в которых Компания не владеет контрольной долей участия, также будут соблюдать данную Политику или аналогичные стандарты.

1.6. Jamiyat nazorat aksiyalarining ulushiga ega bo'lmagan korxonalar xodimlari, mansabdor shaxslari va direktorlarining ham ushbu Siyosat yoki shunga o'xshash standartlarga rioya qilishlari nazarda tutiladi.

1.7. Настоящая Политика устанавливает минимальный стандарт, которому необходимо следовать. Если национальное законодательство устанавливает более высокие требования, то Компания будет соблюдать эти требования. Если Подконтрольное предприятие намерено принять какой-либо стандарт, устанавливающий менее строгие требования, чем указано в настоящей Политике, оно обязано получить письменное согласование Департамента по комплаенсу и мониторингу производственно-финансовых рисков (далее – Департамент по комплаенсу).

1.7. Mazkur Siyosat rioya qilinishi lozim bo'lgan minimal standartni belgilaydi. Agar milliy qonunchilikda yuqoriroq talablar qo'yilgan bo'lsa, u holda Jamiyat ushbu talablarga rioya qiladi. Nazorat ostidagi korxona ushbu Siyosatda qayd etilgan talablarga nisbatan kuchsiz talablarni belgilaydigan biron-bir standartni qabul qilmoqchi bo'lsa, u UzautoComponents MCHJning Komplayens va ishlab chiqarish-moliya risklari monitoringi bo'limi (keyingi o'rinlarda – Komplayens departamenti)dan yozma rozilikni olishi lozim bo'ladi.

## II. ТЕРМИНЫ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ

## II. ATAMALAR VA TAVSIFLAR

**Подконтрольное предприятие** - зависимое и (или) дочернее общество, совместное предприятие, в которых Компания имеет более двадцати процентов их голосующих акций (долей) либо в силу преобладающего участия в их уставном фонде.

**Nazorat ostidagi korxona** - Jamiyat o'zining ovoz beruvchi aksiyalarining (ulushlarining) yigirma foizidan ko'prog'iga ega bo'lgan yoki ustav jamg'armasida ustun ishtirok etish sababli tobe va (yoki) sho'ba korxonasi, qo'shma korxona va boshqa tashkilot.

**Деловой партнер** - любое юридическое или физическое лицо, с которым Компания вступает в договорные отношения, за исключением трудовых отношений (примером Делового партнера могут быть контрагент, поставщик, дистрибьютор, дилер или иное третье лицо, уполномоченное действовать от имени и по поручению или в интересах Компании).

**Biznes hamkor** – Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlariga (mehnat munosabatlaridan tashqari) kirishadigan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs (Biznes hakmorni kontragent, yetkazib beruvchi, distribyutor, diler yoki Jamiyat nomidan va uning manfaatlarini uchun harakat qilishga vakolatli boshqa uchinchi shaxsni misol keltirishi mumkin).

**Персонал** - председатель правления и его заместители, начальники (руководители) структурных подразделений и другие работники Компании.

**Xodimlar/Xodim** – Jamiyat boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilmalar boshliqlari (rahbarlari) va boshqa ishchilar.

**Применимое законодательство в сфере ПОД/ФТ** - законодательство Республики Узбекистан, США, ЕС, а также других стран о противодействии легализации (отмыванию) доходов, полученных преступным путем, и финансированию терроризма, в которых Компания и (или) Подконтрольное предприятие ведет коммерческую деятельность.

**ПОД/ФТ** - противодействие легализации (отмыванию) доходов, полученных преступным путем, и финансированию терроризма.

**Легализация (отмыванию) доходов, полученных преступным путем** - уголовно наказуемое общественно опасное деяние, представляющее собой придание правомерного вида происхождению денежных средств или иного имущества путем их перевода, превращения или обмена, а равно сокрытие либо утаивание подлинного характера, источника, местонахождения, способа распоряжения, перемещения, подлинных прав в отношении денежных средств или иного имущества либо его принадлежности, если денежные средства или иное имущество получены в результате преступной деятельности.

**Финансирование терроризма** - уголовно наказуемое общественно опасное деяние, направленное на обеспечение существования, функционирования, финансирования террористической организации, выезда за границу либо передвижения через территорию Республики Узбекистан для участия в террористической деятельности, подготовку и совершение террористической акции, прямое или косвенное предоставление или сбор любых средств, ресурсов, иных услуг

**JDL/TMga qarshi kurashish to‘g‘risidagi amaldagi qonunchilik** - Jamiyat va (yoki) Nazorat ostidagi korxona o‘z tijorat faoliyatini olib boradigan O‘zbekiston Respublikasi, AQSH, YEI, shuningdek, boshqa mamlakatlarning jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish qonunchiligi.

**JDL/TM**ga qarshi kurashish - jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish.

**Jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish** - pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo‘lsa, ularni o‘tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo‘li bilan ularning kelib chiqishiga qonuniy tus berishdan, xuddi shuningdek bunday pul mablag‘larining yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko‘chirish usulini, pul mablag‘lariga yoki boshqa mol-mulkka bo‘lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki ularning kimga qarashliligini yashirishdan yoxud sir saqlashdan iborat bo‘lgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmish.

**Terrorizmni moliyalashtirish** - terrorchilik tashkilotining mavjud bo‘lishini, faoliyat ko‘rsatishini, moliyalashtirilishini, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni ta’minlashga, terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘-vositalarni, resurslarni berishga yoki

террористическим организациям либо лицам, содействующим или участвующим в террористической деятельности.

## III. ТРЕБОВАНИЯ ПОЛИТИКИ

3.1. Компания признает угрозы, связанные с легализацией (отмыванием) доходов, полученных преступным путем, и финансированием терроризма, и рассматривает соблюдение Применимого законодательства в сфере ПОД/ФТ в качестве приоритета.

3.2. Компании, Подконтрольным предприятиям, Персоналу и Деловым партнерам строго запрещено участвовать, способствовать или иным образом содействовать деятельности, связанной с легализацией (отмыванием) доходов, полученных преступным путем, и финансированием терроризма.

3.3. Настоящая Политика устанавливает следующие обязательные требования:
строго соблюдать Применимое законодательство в сфере ПОД/ФТ;
вести полную и точную бухгалтерскую отчетность и записи, которые корректно и с достаточной степенью детализации отражают операции и не содержат ложные или вводящие в заблуждение данные;
следовать всем процедурам Компании, направленным на соблюдение настоящей Политики.

3.4. Подконтрольные предприятия должны обеспечивать необходимые и эффективные меры ПОД/ФТ контроля для предотвращения такого незаконного использования.

3.5. Компания и (или) Подконтрольное предприятие должны избегать такого предложения продуктов (товаров, работ и услуг), которое несет риск их незаконного использования клиентами или иными третьими лицами в целях легализации

yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmish.

## III. SIYOSAT TALABLARI

3.1. Jamiyat jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish) va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq tahdidlarni e'tirof etadi va JDL/TMga qarshi kurashish sohasida amaldagi qonunchilikka rioya qilishni ustuvor vazifa deb biladi.

3.2. Jamiyat, Nazorat ostidagi korxonalar, Xodimlar va Biznes hamkorlarga jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish) va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq faoliyatda ishtirok etish, unga ko'maklashish yoki boshqa yo'l bilan yordam berish qat'iyan man etiladi.

3.3. Ushbu Siyosat quyidagi majburiy talablarni belgilaydi:
JDL/TMga qarshi kurashish to'g'risidagi amaldagi qonunchilikka qat'iy rioya qilish;
operatsiyalarni to'g'ri va yetarlicha batafsil aks ettiradigan, yolg'on yoki chalg'ituvchi ma'lumotlarni o'z ichiga olmagan to'liq hamda aniq buxgalteriya hisobotlari va yozuvlarini yuritish;
Jamiyatning ushbu Siyosatga rioya qilishga qaratilgan barcha protseduralariga amal qilish.

3.4. Nazorat ostidagi korxonalar bunday noqonuniy foydalanishning oldini olish uchun JDL/TMga qarshi kurashish nazoratining zarur va samarali choralarini ta'minlashi shart.

3.5. Jamiyat va (yoki) Nazorat ostidagi korxona jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish) va terrorizmni moliyalashtirish maqsadida mijozlar yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan

(отмывания) доходов, полученных преступным путем, и финансирования терроризма, кроме случаев, когда риск незаконного использования в достаточной мере урегулирован при помощи эффективных процедур ПОД/ФТ контролей, как минимум включающих следующее:

руководство Компании и Подконтрольных предприятий обеспечивают надлежащее управление рисками в сфере ПОД/ФТ;

Персонал, в чью функции входит исполнение требований применимого законодательства в сфере ПОД/ФТ, регулярно проходят обучение на тему ПОД/ФТ рисков и использования передовых практик;

Компания обеспечивает внедрения автоматизированного мониторинга финансовых операций;

Компания обеспечивает применения риск-ориентированной автоматизированной процедуры проверки с использованием «санкционных» и иных списков;

Осуществляется контроль операций по возврату аванса, их мониторинг и перечисление денежных средств только на идентифицированные банковские счета.

## IV. КОНСУЛЬТАЦИИ И ИНФОРМИРОВАНИЕ О НАРУШЕНИЯХ

4.1. Если Персоналу необходима консультация по настоящей Политике, а также, если Персонал считает, что Политика была нарушена кем-либо, Персоналу следует обратиться в Департамент по комплаенсу по телефону горячей линии: +998-78-120-40-00 либо по электронному адресу: compliance@usf.uz.

noqonuniy foydalanish riskini tug‘diradigan mahsulotlar(tovarlar, ishlar va xizmatlar)ning bunday taklifidan o‘zini chetga olishi lozim bo‘lib, noqonuniy foydalanish riski JDL/TMga qarshi kurashish nazoratining samarali protseduralari orqali yetarlicha bartaraf etilgan, hech bo‘lmaganda quyidagilarni o‘z ichiga oladigan holatlar bundan mustasno:

Jamiyat va Nazorat ostidagi korxonalar rahbariyati JDL/TMga qarshi kurashish sohasida risklarning to‘g‘ri boshqarilishini ta’minlaydi;

vazifalari JDL/TMga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilishni o‘z ichiga olgan Xodimlar muntazam ravishda JDL/TMga qarshi kurashish risklari va ilg‘or tajribalardan foydalanish mavzusi bo‘yicha o‘qitiladi;

Jamiyat moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirilgan monitoringining amalga oshirilishini ta’minlaydi;

Jamiyat “sanksiyalar” va boshqa ro‘yxatlar yordamida riskka yo‘naltirilgan avtomatlashtirilgan tekshirish protsedurasi qo‘llanilishini ta’minlaydi;

Avansni qaytarish bo‘yicha operatsiyalarni nazorat qilish, ularni monitoring qilish va pul mablag‘larini faqat aniqlangan bank hisob raqamlariga o‘tkazish amalga oshiriladi.

## IV. MASLAHATLAR VA QOIDABUZARLIKLAR TO‘G‘RISIDA XABAR BERISH

4.1. Agar Xodimlarga ushbu Siyosat bo‘yicha maslahatlar zarur bo‘lsa, shuningdek, Xodimlar ushbu Siyosatni kimdir tomonidan buzilgan deb hisoblasalar, Komplayens departamentiga +998-78-120-40-00 ishonch telefoni bo‘yicha qo‘ng‘iroq qilishlari yoki compliance@usf.uz elektron pochta manziliga

Компания не приемлет никаких мер воздействия или преследования в отношении лиц, добросовестно сообщивших о возможных нарушениях.

4.2. К Персоналу, нарушившему требования настоящей Политики, могут быть применены меры дисциплинарного воздействия вплоть до прекращения трудового договора.

murojaat etishlari lozim. Jamiyat mumkin bo'lgan qoidabuzarliklar to'g'risida vijdonan xabar bergan shaxslarga nisbatan hech qanday ta'sir yoki ta'qib choralarini qo'llamaydi.

4.2. Ushbu Siyosat talablarini buzgan Xodimlar mehnat shartnomasi bekor qilinishgacha bo'lgan intizomiy javobgarlikka tortilishlari mumkin.